

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

IBRAGIMOVA RAYXONA ABDIMAJITOVNA

**“BOBURNOMA” MATNIDAGI MILLIY UDUMLAR VA REALIYALAR
INGLIZCHA TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Ibragimova Rayxona Abdimajitovna

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarining
lingvopragmatik tadqiqi 3

Ibragimova Rayhona Abdimajitovna

A Linguopragmatic Study of English Translations of National Traditions and
Realias in the Text of “Baburnama” 25

Ибрагимова Райхона Абдимажитовна

Лингвопрагматическое исследование английских переводов названий
национальных традиций и реалий в тексте «Бабурнаме» 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 54

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

IBRAGIMOVA RAYXONA ABDIMAJITOVNA

**“BOBURNOMA” MATNIDAGI MILLIY UDUMLAR VA REALIYALAR
INGLIZCHA TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2250 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Rahimovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nematilla Otajonov
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shoh ko'chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
2024-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

D.A.Rustamov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

A.Dj.Atoboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

M.E.Umarxodjayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida mumtoz asarlar tarjimasining lingvopragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan asrning so'nggi yillaridan boshlab mumtoz asarlardagi milliy-madaniy til birliklari tarjimalarini o'rganish masalasi yanada kuchaydi. Shuningdek, qomusiy manba hisoblangan "Boburnoma" matni qo'lyozmalari va tarjimalarini tadqiq etish dunyo sharqshunos va tarjimashunoslari diqqat markazida ekanligi ham tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. "Boburnoma" matnida aks etgan ijtimoiy va madaniy hayot, milliy udumlar va urf-odatlarini tasvirlovchi lisoniy birliklarning ifoda imkoniyatlarini aniqlash muhim vazifalardan sanaladi.

Dunyo tarjimashunosligida til va madaniyatning uzviy bog'liq holdagi tarjimasini amalga oshirish, tarjimada ekvivalentlik, lisoniy vositalarning milliy xususiyati, asarning milliy bo'yog'ini saqlagan tarzda qayta yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, tarjimadagi kamchiliklarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri keladi. Har bir xalqning milliy xususiyatlarini ifodalovchi lisoniy birliklar tarjimasida vujudga keladigan muammolardan biri tarjimaning lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berish masalasidir. Ushbu xususiyatlarni ifodalashda milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan realiyalar, milliy udumlar, milliy-madaniy birliklarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, milliy-madaniy qadriyatlarni tarjimalarda aks etish muammolariga yechim topish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda turli xalqlar milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari tarjimalarini tadqiq etish, o'zbek madaniyatining sharqona milliy xususiyatlarini jahonga tanitish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, adabiyot va ma'naviyatga davlat siyosati darajasida qaralayotgani, "buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob, ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerakligi, buning uchun olim va fuzalolarimiz, mutaxassislarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur"¹ligi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fani mavqeyini ko'tarish talabini qo'yadi. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz ilmiy merosini, xususan "Boburnoma"dagi milliy udumlar, xalqning milliy xususiyatini ko'rsatib beruvchi realiyalarni milliy kategoriya sifatida o'rganish, badiiy matn tarjimasini asliyatdagidek kitobxonga yetkazish, pragmatik muvofiqlikda qayta yaratish zarurligi ishning muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022. – 464 b

24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 20-iyundagi PQ – 3074-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 O‘zbekiston respublikasida “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zahiriddin Muhammad Boburning sermahsul ijodi, xususan “Boburnoma”ni o‘rganish, asarning tayanch manbalarini aniqlash, badiiy xususiyati va xorijiy tillarga tarjimalarini maxsus ilmiy tadqiq etishda ingliz mutaxassislari J.Leyden, U.Erskin, L.U.King²; A.S.Beverij³, H.Beverij, amerikalik H.Lemb⁴, U.Tekston⁵; italyan Federiko Pastore⁶, “Boburnoma” matni tarjimalari va ularning pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda M.Salye, G.F.Blagova, I.V.Stebleva⁷ kabi sharqshunoslarning hissaları katta. Ayniqsa, yapon olimi Eyji Mano‘ning “Boburnoma” tanqidiy matnini tayyorlagani va tarjimasi bilan chop ettirgani alohida ahamiyatga ega⁸. Mamlakatimizda ko‘zga ko‘ringan yetuk olimlardan A.Fitrat, M.Shayxzoda, H.Yoqubov, S.Azimjonova, A.Qayumov, P.Shamsiyev, V.Zohidov, S.Jamolov, S.Mirzayev, S.Hasanov, B.Valixo‘jayev, H.Qudratullayev, M.Umarxo‘jayev, A.Abdug‘afurov, G‘.Salomov, N.Otajonov, N.Komilov, G‘.Sotimov, H.Boltaboyev, M.Xolbekov,

² King L, Leyden J. & Erskine W. Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. – London, 1826. Annotated and revised ed. by L.King, 2 Vols – Milford, 1921. - 480 pp.

³ Beveridge A.S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the original Turki Text of Zahiru‘ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge, 2 Vols. – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970. – Lahore, 1975. - 472 pp.

⁴ Harold Lamb. Babur the Tiger. – New-York, 1961. - 226 pp.

⁵ The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, edited, and, annotated by Wheeler. M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. - 460 pp.

⁶ Federiko Pastore. Zahir ad-Din Muhammad Babur; Baburnama. – Italy, 2023. - 422 pp.

⁷ Салье М. Из узбекских классиков. – Ташкент, 1946. -178 с.; Благова Г.Ф. О характеристике грамматического строя (морфологии староузбекского литературного языка конца XV века по «Бабурнаме»). Дисс. ...канд. филол. наук. – М.,1954. - 247 с.; Стеблева И.В. «Бабурнаме» язык, прагматика текста, стиль. – М., 1994. - 404 с.

⁸ Eiji Mano. Bābur-nāma (Vaḡāyī). Critical Edition Based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes. – Kyoto: Shōkadō, 1995. - 630 pp.

A.Abduazizov, L.Xo‘jayeva, G‘.Xo‘jayev, S.Shukrullayeva, F.Salimova, A.Ibrohimov, R.Karimov, M.Sobirov, Z.Xolmanova, D.Xoshimova, Z.Teshaboyeva, M.Abdullayeva, Sh.Hayitov, I.Sulaymonov, M.Amonov, D.Muhammadiyeva, M.Sharaxmetova, M.Mo‘minova, S.Shodmonova, Y.Altmishevalarning ishlarida ushbu masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan⁹.

O‘zbek adabiyotshunosligida “Boburnoma”ni badiiy xususiyatlarini o‘rganish, muallifning o‘ziga xos tasvirlash mahorati, asardagi tarixiy shaxslar portreti, ruhiy holatining badiiy tasviri, frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi, asar tarjimasini lingvopragmatik jihatdan tadqiq qilish kabi masalalar yuqorida tilga olingan ishlarda tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, “Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at” H.Nazarova tomonidan tuzilgan¹⁰ bo‘lib, “Boburnoma” tarjimasidagi muammolar asarning ruscha tarjimasida L.Xo‘jayeva¹¹ dissertatsiyasida, asarning olmon tilidagi tarjimasida esa G‘.Xo‘jayev¹² tadqiqotlarida yoritilgan. Shuningdek, S.Shukrullayeva¹³, M.Xolbekov¹⁴ va N.Otajonov¹⁵larning ishlarida asosan badiiy nasr namunasi sifatida yondashilib, ilmiy muammolar shu jihatlardan yoritilgan

⁹ Фитрат А. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент: Ўздавнашр, 1928. -43 б; Максуд Шайхзода. Асарлар: 6 жилдлик, 5-жилд. Захириддин Бобир. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1973. – 327 б; Ёқубов Ҳ. Бобир. –Тошкент, 1941; Адабий маколалар; Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, - 366 б; Бобир. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонова, А.Қаюмов. – Тошкент, 1958. - 126 б; Бобир. Бобирнома / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. – Тошкент, 1960. - 513 б; Зоҳидов В. Бобирнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси ҳақида. (Сўз боши) //Бобир. Бобирнома – Тошкент, 1960. – Б. 5 – 52; Жамолов С. О художественных особенностях «Бабур-наме»: Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент, 1961. - 154 б; Бобир. Асарлар / Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев. Уч жилдлик. – Тошкент: Фан, 1965. - 296 б; Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Тошкент: Фан, 1966. - 85 с.; Бобур. (Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов). – Тошкент: Фан, 1971. - 241 б.; Б. Валихўжаев. Захириддин Мухаммад Бобир. // Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент, 1978. - 380 б; Қудратуллоев Ҳ.С. «Бобурнома»нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг қиёсий таҳлили асосида): Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент: 1998. - 242 б; Ҳасанов С. Бобурнинг Рисолайи аруз асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. - 174 б; Умархўжаев М. Халқ қалбининг кўзгуси: Бобур Мирзо ватанида у билан боғлиқ обидаларни тиклаш, Бобур жамғармасини ташкил қилиш ҳақида//Коммунист. 1990, 14 март; Бобур. Девон / Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан; 1994; Ғайбуллох ас-Салом, Н.Отажон. Жаҳонгашта Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1996. - 362 б; Хайриддин Султон. Бобурийнома. – Тошкент, 1996; Эрскин У. Ҳиндистонда Бобур давлати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси). – Тошкент, 1997. - 64 б; Шарма П. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси). – Тошкент, 1998. - 168 б; Бобур. Мубаййин / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2001. - 182 б; Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз кадри. – Тошкент: Адолат, 2004. - 139 б; Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. - 303 б; Холманова З. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009; - 325 б; Хошимова Д. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2018. - 132 б; Абдуллаева М. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004. - 152 б.

¹⁰ Назарова Ҳ. Захириддин Мухаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1972. - 190 б.

¹¹ Ходжаева Л. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Андижан, 1985. - 24 с.

¹² Ходжаев Г. Воссоздание художественно-стилистического своеобразия произведений узбекской литературы в переводе на немецкий язык: Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. - 156 с.

¹³ Шукруллаева С. Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. - 48 с.

¹⁴ Холбеков М. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия): Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1991. - 260 с.

¹⁵ Отажонов Н. Бадий таржима ва илмий шарҳ: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: «Билим» жамияти, 1978; ўша муаллиф. Бобурнома жаҳон адабий жараёнида: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. - 275 б.

bo'lsa, lug'at masalasi hamda asarning fransuzcha tarjimasini F.Salimova¹⁶ tadqiqotida tadqiq etilgan bo'lib, "Boburnoma"dagi numerativlarning ma'no xususiyatlari E.Jiyanova¹⁷, hindcha so'zlar tadqiqi A.Ibrohimov¹⁸, matnda ko'zda tutilgan ma'no, uni to'g'ri tushunish va qay darajada to'g'ri yoritish tahlili M.Sobirov¹⁹, "Boburnoma"dagi she'riy tarjimalar muammosi R.Karimov²⁰, "Boburnoma" asarining tanqidiy matnini yaratish muammolari va "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi D.Xoshimova²¹, "Boburnoma" leksikasi tadqiqi Z.Xolmanova²², "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi Z.Teshaboyeva²³, "Boburnoma"ning turkcha tarjimalari tadqiqi Sh.Hayitov²⁴, "Boburnoma"da g'olib va mag'lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri I.Sulaymanov²⁵, "Boburnoma"dagi izofiy birikmalar tadqiqi M.Amonov²⁶, "Boburnoma"ning turkcha tarjimalaridagi paremiyalar D.Muxammadiyeva²⁷, "Boburnoma"ning urducha tarjimasida muallif uslubiga xos leksik-semantik xususiyatlarning aks etishi M.Sharaxmetova²⁸, "Boburnoma" matni tarjimalarida antroponim va toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari M.Mo'minova²⁹, "Boburnoma" matnining inglizcha tarjimalarida o'lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik va pragmatik tadqiqi S.Shodmonova³⁰, "Boburnoma"ning ruscha tarjimalaridagi diniy mazmunning haqiqiyliги esa Yo.Altmisheva³¹lar

¹⁶ Салимова Ф. Лексикографические и текстологические характеристики Восточно-тюркского словаря Паве де Куртейля и переводов «Бабурнаме»: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. - 152 с.

¹⁷ Жиянова Э. «Бобурнома»даги нумеративларнинг маъно хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. - 135 б.

¹⁸ Иброҳимов А. «Бобурнома»даги ҳиндча сўзлар тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. - 170 б.

¹⁹ Собиров М. «Бобурнома»нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадийлигини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эрскин, Бевериж ва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида) : Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. - 135 б.

²⁰ Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003. - 150 б.

²¹ Хошимова Д. «Бобурнома» асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари (ўзбек, инглиз ҳамда Бобурнома танқидий матнининг япон нашрлари мисолида). Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. - 223 б; ўша муаллиф. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2018. - 265.

²² Холманова З. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009. - 325 б.

²³ Тешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик birlikлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2017. - 275 б.

²⁴ Ҳайитов Ш. Бобур ижодининг хорижда ўрганилиши (ўзбекча-туркча манбалар қиёсий таҳлили) : Филол. фан. фалс. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018. - 145 б.

²⁵ Сулаймонов И. «Бобурнома»да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири. Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2020. - 178 б.

²⁶ Амонов М. «Бобурнома»даги изофий бирикмалар лисоний тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2020. - 154 б.

²⁷ Мухаммадиева Д. «Бобурнома» туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2021. - 134 б.

²⁸ Шарахметова М. «Бобурнома»нинг урдуша таржимасида муаллиф услубига хос лексик-семантик хусусиятларнинг акси этиши: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2021. - 166 б.

²⁹ Мўминова М. «Бобурнома» матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Андижон, 2021. - 137 б.

³⁰ Шодмонова С. «Бобурнома» матнининг инглизча таржималарида ўлчов birlikлари лексемаларининг лингвокультурологик ва прагматик тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Самарқанд, 2022. - 132 б.

³¹ Алтмишева Ё. Аутентичность религиозного контента в русских переводах «Бабурнаме». Дисс. ...д-ра философии по филол. наук. – Андижан, 2022. - 136 с.

tomonidan o'rganilgan. Lekin "Boburnoma" matnidagi o'sha davr milliy koloritining eng muhim jihatini ifodalovchi realiyalar va milliy udumlar tarjimalarining lingvopragmatik jihatlari, realiyalarning tarjimada aks etish muammolari hamda realiyalar tarjimalarining pragmatik muvofiqlik va nomuvofiqlikda amalga oshirilganligi jihatidan hozirgacha chet el va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilmagan va ushbu mavzu bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mumtoz asarlar tarjimalarini qayta yaratish tamoyillari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy mahorati va "Boburnoma" matnidagi realiyalar va milliy udumlarning lingvopragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz tarjimonlari Leyden-Erskin, A.Beverij va V.Tekston tarjimalari orqali ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Boburnoma" matnidagi realiyalar va milliy udumlarni lingvistik nuqtayi nazardan tasniflash va qiyosiy lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish;

"Boburnoma" asarida ifodalangan milliy udumlar va realiyalarning tarjima qilish masalalarini tahlil qilish, bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini tadqiq etish va yoritish;

Realiyalar va milliy udumlar tarjimalarining pragmatik muvofiqlik va nomuvofiqlikda amalga oshirilganligini dalillash;

"Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalarning tarjima qilish mezon va tamoyillarini aniqlash;

Milliy udumlar va realiyalar tarjimalarini tadqiq qilishning nazariy asoslarini umumlashtirish, shuningdek, "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarida vujudga keladigan lingvokulturologik o'ziga xosliklarini yuzaga chiqarish va ular tarjimasida ekvivalentlikka erishish mezonlari va usullarini nazariy jihatdan rivojlantirish.

Tadqiqotning obyektini "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalarning Leyden-Erskin, A.S.Beverij va V.Tekstonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalarning ingliz tiliga tarjimasining leksik, semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, chog'ishtirma, pragmatik tahlil va statistik tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Boburnoma"dagi milliy udumlar va realiyalarning qiyosiy-chog'ishtirish tahlillari natijasida, asardagi realiyalar leksik-ma'noviy jihatdan uchta yirik mavzuiy guruhga: geografik, etnografik, ijtimoiy va siyosiy realiyalarga ajratilib, ushbu yirik guruhlar ularni tashkil etuvchi onomastik, maishiy hayotga xos bo'lgan, ma'muriy-hududiy birliklar, musiqa va madaniyatga oid, harbiy, diniy

realiyalar kabi kichik xos soʻzlar guruhchalariga tasniflandi va shular asosida ingliz tiliga nisbatan qiyosiy lingvomadaniy jihatlari aniqlangan;

“Boburnoma” asaridagi Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston xalqlari milliy va diniy udumlari (yuzochdi, beshikkerti, qirq marosimi kabilar) va geografik realiyalar (Isfara, Voruh, Mirshoh qavchin, Sayyid Qosim eshikogʻa jaloyir, subhoni, tobulgʻu yigʻochi, ayiq oʻti kabilar), maishiy hayotga xos boʻlgan realiyalar (pashoyi, parojiy, toʻn, belbogʻ, boʻrk, ayvon, chordara kabilar), pul va oʻlchov birliklari (dirham, dinor, ashrafiy; lak, karor), musiqa va madaniyat bilan bogʻliq realiyalar (naqsh, nay, gʻijjak kabilar) tarjimalarining leksik, semantik va lingvopragmatik jihatlari tarjimashunoslikning adekvatlik xususiyati asosida ochib berilgan;

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning leksik-semantik mohiyati, kognitiv-pragmatik, dennotativ hamda konnotativ jihatlari aniqlanib, nuhrang, subhoni, ud kabi realiyalarning toʻliq pragmatik muvofiqlikda, shuningdek qonun, gʻijjak kabi realiyalar; yukunib salomlashish, yilqiron oshi kabi marosim nomlari tarjimalarining pragmatik nomuvofiqlikda amalga oshirilganligi ochib berilgan;

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va geografik, etnografik, ijtimoiy-siyosiy realiyalar tarjimalari lingvomadaniy ekvivalensizlik hodisasi, ularning kontekstdagi muhimlik darajasi, lingvokulturologik tabiati, vaqtga nisbatan nisbiylik, tarjimon shaxsi, asliyat va tarjima tillari lisoniy tizimlarining imkoniyatlari kabi omillarni hisobga olgan holda amalga oshganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarini oʻrganish, milliy udumlar va realiyalar tarjima masalalarini tahlil qilish, bir-biriga oʻxshash va farqli tomonlarini tadqiq etish va yoritish yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

realiyalarning lingvistik tahlili, ularning boshqa madaniy birliklardan farqli jihatlari aniqlashtirilgan hamda milliy udumlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini koʻrsatuvchi jihatlari ochib berilgan;

mumtoz adabiyot namunalarida milliy udumlar va realiyalarning tarjima matnlarida aks ettirish tamoyillari hamda tarjimalarni amalga oshirishda qanday yoʻl tutish kerakligi boʻyicha fikrlar va takliflar berilgan;

“Boburnoma” realiyalarini tarjima qilishda tarjimonlar kontekst ichiga chuqur kirib borishi muhimligi, asardagi har bir realiyani oʻzga tilga tarjima qilishda realiyalarni asarning umumiy kontekstdan ajratgan holda tarjima qilish mumkin emasligi nazariy fikrlar asosida isbotlandi;

“Boburnoma” matnida tilga olingan xalqlarning milliy udumlari, qadriyatlari, urf-odatlar, anʼanalari, rasm-rusumlari, turmush tarzini ifodalovchi milliy-madaniy leksik birliklar yuzasidan oʻtkazilgan lingvistik tahlil natijasida milliy udumlar tarjimasidagi muammolarga sabab boʻlgan omillar belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya tadqiqot ishida muammoning aniq qoʻyilganligi, chiqarilgan xulosalarni tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy va qiyosiy tipologik kabi tahlil qilish usullari vositasida asoslanganligi, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda

chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mumtoz asarlar badiiy tarjimasining nazariy jihatlarini ochib berishi, jumladan, xalqning milliy-madaniy belgisini ifodalovchi milliy udumlar va realiyalarning ingliz tilidagi muqobil tarjima variantini yaratish kabi muammolarning ilmiy-nazariy tomonlarini yoritishda o‘ziga xos rol o‘ynashi hamda mumtoz adabiyotning ingliz tilidagi tarjimalarini lingvopragmatik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, madaniy va adabiy aloqalar, qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik fanlari rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjimashunos, tilshunos, adabiyotshunos va tarixchilar amaliy hamda ilmiy izlanishlarida undan manba sifatida foydalanishi, shuningdek, dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohaza va takliflar “Boburnoma” matni bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar uchun, Bobur ensiklopediyasining to‘liq variantini tayyorlash, o‘zbek mumtoz adabiyotida qo‘llanilgan realiyalar asosida qo‘llanmalar tuzish hamda ularning tarjimalarini yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tipologik tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan takliflar asosida: “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning lingvistik talqini, uni tilshunoslikdagi ahamiyatli jihatlariga aloqador materiallardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017-2020-y.y.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda dissertatsiya ilmiy natijalari va xulosalaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi 2023-yil 24-martdagi 17-01/45-3-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning ingliz va o‘zbek tillarida struktur-semantik, lingvokulturologik hamda pragmatik xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai-nazaridan aniqlash, milliy udumlar va realiyalarning leksik-semantik mohiyatini, kognitiv-pragmatik, dennotativ hamda konnotativ, diaxron va sinxron jihatlarini yoritish, tarjima qilish jarayonida tug‘iladigan muammolarni, transformatsion jarayonlarni aniqlab, ularni adekvat o‘g‘irishga qulay tarjima usullari bo‘yicha ilmiy-nazariy tavsiyalarni shakllantirish hamda tarjimon uslubi va mahoratini badiiy tarjima matnlari vositasida dalillash, ingliz va o‘zbek tillarida milliy udumlar va realiyalarning leksik-ma’noviy, strukturaviy turlarini tasniflash, ularni ifodalash bilan bog‘liq belgilarni ko‘rsatib berishga doir ilmiy xulosa va natijalardan loyihaning nazariy asosini mustahkamlashda foydalanilgan;

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning tarjima qilish muammolari va ularning lingvokulturologik hamda pragmatik xususiyatlari to‘g‘risida, shuningdek mumtoz asarlarni tarjima qilish tamoyillariga oid ilmiy

xulosalardan Farg‘ona davlat universiteti S-UZ800-20-GR-0040 “2020-2022 Access Microscholarship Program Fergana State University” mavzusidagi xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universiteti 2023-yil 5-apreldagi 01-1333-son ma‘lumotnomasi). Natijada adekvat tarjima usullari bo‘yicha ilmiy-nazariy tavsiyalarni shakllantirish, tarjimon mahoratini badiiy tarjima matnlari vositasida ifodalash, ingliz va o‘zbek tillarida milliy udumlar va realiyalar bilan bog‘liq belgilarni ko‘rsatib berishga doir ilmiy xulosa va natijalardan loyihaning nazariy asosi mukammallashtirilgan;

“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning pragmatik xususiyatlari, Zahiriddin Muhammad Boburning milliy udumlar va realiyalarni ifodalashdagi tahliliy fikr va nazariy xulosalaridan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Munosabat”, “O‘zbekiston tarixi”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot” ko‘rsatuvlarining senariylarini tayyorlashda (2022-2023-yillar davomida) foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalining ma‘lumotnomasi). Natijalar, o‘zbek xalqining asrlar davomida yaratgan o‘ziga xos badiiy tafakkurining betakror mo‘jizalarini o‘zida mujassamlashtirgan xalq an‘analari, marosim va udumlari, urf-odatlar va milliy xususiyatlari, shuningdek Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan “Boburnoma” asarida tilga olingan Xuroson, Movarounnahr va Hindistonda ko‘rgan, kuzatgan voqea-hodisalari, xalqning turmush tarzi, o‘sha davrdagi milliy udumlar va an‘analar xalq ma‘naviyatini boyituvchi muhim omil sifatida yoritib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma‘ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi **“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning ilmiy-nazariy asoslari** deb nomlangan bo‘lib, unda “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va ularning o‘ziga xosligi” hamda “Boburnoma”

matnidagi realiyalarning lingvistik tasnifi” kabi masalalar yoritib berilgan.

Milliy udumlar, urf-odatlar va an’analar xalq ma’naviyatini boyituvchi muhim omildir. Ma’lumki, urf-odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim kishi hayotidagi muhim hodisalar sodir bo’lishida vujudga kelishi bilan xarakterlanadi³². Badiiy tafakkurning betakror mo’jizalarini o’zida mujassamlashtirgan xalq an’analari, marosim va udumlar azaliy milliy qadriyatdir.

Milliy urf-odatlar va udumlariga oid bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, o’zbek tilidagi to’y marosimi bilan bog’liq ifodalar A.Jo’raboyev va Z.Xusainovalar, nikoh to’yi qo’shiqlarining lisoniy tahlili F.Hayitova, kelin salom janrining poetik tadqiqi O.Ismanova, o’zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi M.Qahhorova, o’zbek va nemis tillarida urf-odat ifodalovchi leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi Z.Pazilovalarning tadqiqot ishlarida yoritilgan³³. Shuningdek, M.Sattor “O’zbek udumlari” nomli asarida xalqimiz udumlarini yetti bobga ajratib, ularning o’ziga xos tabiatini ochib bergan³⁴. Bobur “Boburnoma” matnida urf-odatlar, milliy udumlar tasvirini shunday xotirlaydi: *Yana biri Xonzodabegim edi, Tirmiz xonzodalaridin edi. Men Samarqandg’a besh yoshimda Sul-ton Axmad mirzo qoshig’a kelgan fursatda olib edi. Hanuz yuz yopug’i bor edi. Turkona rasm bila manga buyurdilar, men yuzini ochtim*³⁵. Uzoq yillar davomida to’ydan keyingi milliy udumlar sifatida “yuz ochdi”, “kelin salom”, “chaqirdi” (charlar), “kuyov chaqiriq”, “qiz chaqiriq” singari udumlar haligacha saqlanib qolgan. Milliy udumlar yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o’rgatish vositasi hamdir. Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma’naviy madaniyatimizda, chillak, chavgon, ko’pkari, kurash kabi milliy o’yinlarimizda, “quloqtishlar”, “beshikkerti”, “qalin”, “to’qqiz” kabi rasm-rusum va udumlarimizda, motam marosimlarida yorqin ifodasini topgan. Avlodlarimiz tomonidan qattiq ta’qib ostiga olinib, la’natlanib, yo’q qilib yuborilgan odatlarimizdan biri beshikkerti, quloqtishlar odatidir. Bu urf-odat “Boburnoma”da: *Uchunchi qiz Oyisha Sul-tonbegim edi. Besh yoshimda Samarqandga kelganda manga qo’lub edilar. So’ngra qazoqdiqlarda Xo’jandqa keldi, anda olib edim. Samarqandni ikkinchi navbat olg’onda birgina qizi bo’lub edi, necha kundan so’ng Tengri rahmatig’a bordi. Toshkand buzug’lug’idin burunroq egachisining angizi bila mendin chiqti* (Boburnoma, 2002; 44) ya’ni uchinchi qizi Oysha Sul-tonbegimni besh yoshimda menga beshikkerti qilingan edi deya keltirilgan bo’lib, bu misol orqali Bobur kitobxonni o’sha davrda amalda bo’lgan xalq

³² Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б.8.

³³ Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. - 46 с.; Хусайнова З. Ономазиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1984; - 166 с.; Хайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. - 140 б; Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида «келин салом» жанри (генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. - 48 б; Қаҳҳарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. - 24 б; Пазилова З. Ўзбек ва немис тилларида урф-одат ифодаловчи лексик birlikларнинг лингвокультурологик тадқиқи. – Андижон, 2022. - 24 б.

³⁴ Sattor M. O’zbek udumlari. – Toshkent: Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 192 b.

³⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 45 («Бобурнома»га оид барча иктибослар шу манбадан олинади. Асар саҳифалари қавс ичида (Бобурнома, 2002; 40) шаклида кўрсатиб борилади).

udumlari, marosimlari bilan tanishtiribgina qolmay, balki bu urf-odat va udumlar ma'lum darajada siyosiy vaziyatlarga ham bog'liqligiga ishora qiladi. "Beshikkerti" degani qiz beshikdanoq sovchi-yu elchisiz o'z xaridorini topib ketdi degan ma'noni bergan. Bundan tashqari bu udum qadim zamonlarda qabilalar, xonliklar o'rtasidagi urush janjallarga chek qo'yish usullaridan biri bo'lib, shu milliy urf-odatlar sababli tinch qo'shnichilikni saqlab qolishgan. "Boburnoma" nafaqat turkiy xalqlar, balki hind, afg'on va mo'g'ul xalqining urf-odat, milliy udum va marosimlari, o'sha davr milliy va tarixiy madaniyati haqida ham ma'lumot beradi.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganadigan soha – lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir. Realialarning turli aspektlarini o'rganishda rus tadqiqotchilaridan O.S.Axmanova, V.MVazsburd, Vereshagin va Kostomarovlar, A.V.Kunin, G.D.Tomaxin, V.G.Chernov, L.I.Sapogova, L.N.Sobolev, A.Karinalar ishlarida³⁶ amalga oshirilgan bo'lib, ularda realiyalar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik nuqtayi-nazaridan o'rganilgan va ularga ilmiy ta'riflar berilgan. O'zbek tarjimashunoslaridan G'.Salomov, Sh.Safarov, M.Umarxo'jayev, R.Fayzullayeva, N.Komilov, R.Shirnova, Z.Sodiqov, N.Dosbayeva, Sh.Isayeva, M.Abduraxmonovlarning³⁷ ishlarida realialarning boshqa terminlardan farqi, tillardagi realialarning tematik xususiyatlari kabilar tahlil qilingan.

"Realialar faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va h.k. nomidir"³⁸. Bizning fikrimizcha ham realiyalar – ma'lum bir xalqning turmushida aks etgan voqelikdir. Realia atamasi rus tarjimashunosligiga Andrey Fyodorov tomonidan kiritilgan (1941) va dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar nomlari sifatida tushunilgan.

"Boburnoma"dagi realialarni geografik, etnografik va ijtimoiy-siyosiy realialarga ajratdik. Geografik realiyalar guruhiga asardagi Onomastik realiyalar ya'ni "toponimlar" va "antroponimlar" hamda Endemiklar – flora va fauna nomlari kiritilgan. (1-jadvalga qarang)

³⁶Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 457 с.; Вайсбурд Е.М. Реалия как элемент страноведения. – Риз. Р. №3. – М. 1972. – 98 с.; Верещагин В.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. –М: 1983. – 260 с.; Кунин А.В. Английская фразеология. Теоретический курс. – Москва, 1978. – 343 с.; Томахин Г.Д. Реалия через американизмы. – Москва, 1982. – 442 с.; Чернов Г.В. В вопросу о передаче безэквивалентной лексики при переводе публицистики на английский язык. – Уч. записки МГПИИЯ. Вып 58. – 1958. – 223 с.; Сапогова Л.И. О понятие реалия. Сб. №4. – М., 1990. – 315 с.; Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952. – 404 с.

³⁷ Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, 1964. – 159 б; Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 222 б.; Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. – Ташкент: Фан, 1979. – 178 с.; Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 1988. – 117 б., Ширинова Р. Диний реалияларни бадий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари (Француз адабиётининг ўзбек тилидаги таржималари мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2002. – 133 б.; Содиков З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. – Наманган, 2021. – 98 б.; Досбаева Н.Т. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 76 б.; Исаева Ш.М. Юсуф Хос Хожиб асарининг инглиз ва рус тилидаги таржималарида эквивалент бўлмаган лексиканинг лингвомаданий жиҳатлари: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 59 б.; Абдурахмонов М. Муқобилсиз лексиканинг семантик-функционал хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри ...дисс. – Наманган, 2022. – 124 б.

³⁸ Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988. – С.5.

Endemiklar turlari jadvali

Endemiklar turlari:	“Boburnoma” matnidan olingan misollar:
Flora	subhoni, tobulg‘u yig‘ochi, ayiq o‘ti, qarolu, balut, bodom, qovun, uzum, noshvoti, binafsha, lola, chechak, tobulg‘u, sanjil, bodom, za‘faron, norunj, turunj, amluk, nayshakar, chilg‘o‘za, xurmo, emluk, ro‘yan, zaytun, xanjak, qarqand, noju, chil, g‘o‘za, chinor, tol, lola, arg‘uvon, butaka, qulon qo‘yrig‘i, ko‘k shuvoq, anba, keyla, anbiliy, mahva, kamrak, bahal, sangtara, sadofil, norjil, gular, taar, noranj, paniyal, jaasun, guli kaneyr, kevra, yosuman va boshqalar
Fauna	oq kiyik, bug‘u-maral, qirg‘ovul, tovushqon, qilquyruq, cho‘chqa, mushkin sichqon, nilagov, ko‘tahpoy, qulon, qo‘ton, uqor, lo‘cha, shorak, to‘ti, tovus, qarqara, turna, bag‘riqora, murg‘aki, kark, kalahra, nuvl, gilahriy, suv sheri, seysor, chiniy ho‘kiz, gariyal, durroj, kanjal, xarchal, charz, dang, uqor, hakka, tovus va boshqalar

Asarda uchragan toponimlarni ham o‘z navbatida yetti guruhga: oykonim, nekronim, gidronim, oronim, antroponim, teonim va agronimlarga tasnifladik. O‘z navbatida bu guruhlarining ayrimlari kichik guruhchalarga ham bo‘linadi. Antroponimlarni ismlar, taxalluslar va laqablarga ajratdik. Har biriga “Boburnoma”dan misollar keltirilib tahlilga tortildi. “Boburnoma” matnida keltirilgan onomastik realiyalar tahliliga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Boburnoma” o‘zida ko‘plab tarixiy va milliy so‘zlarni jamlagan asar ekanligiga amin bo‘lamiz. Bobur Samarqandni qo‘ldan boy berib, ancha askarlari va yaqin kishilaridan ajralib, qiyin va tahlikali vaziyatga tushganda, o‘zining yaqin insonlarini shunday xotirlaydi: *Mening bila qolg‘onlar, beklardin Qosim qavchin bek, Vays Log‘ariy bek, Shirim tag‘oyi; ichkildarin Mirshoh qavchin, Sayyid Qosim eshikog‘a jaloyir, Muhammad Do‘st, Ali Do‘st tag‘oyi, Xudoyberdi tug‘chi mo‘g‘ul, Yorak tag‘oyi, Pir Vays, Shayx Vays, Qosim miroxo‘r, Haydar rikobdor. Manga bisyor dushvor keldi, beixtiyor g‘alaba yig‘ladim* (Boburnoma, 2002; 64). Ushbu parchada kishi nomlari laqab, taxallus va unvoni bilan ta‘riflangan bo‘lib, **qavchin**, **jaloyir** – qavm, urug‘, qabila nomi³⁹ni, **eshikog‘a** – eshik sardori, hukmdorlar saroyidagi lavozim nomi⁴⁰, **tug‘chi** – yurishlarda, jangda tug‘, bayroq tutuvchi, **rikobdor**–otga mindirib qo‘yuvchi⁴¹ kabi mansab nomini, **tag‘oyi**–qarindoshlikni ifodalovchi⁴², **pir**, **shayx** kabi darajani bildiruvchi xos so‘zlar antroponimlarni aniqlab kelgan. “Boburnoma” matnidagi realiyalarning keyingi katta guruhi **Etnografik realiyalarni** uchta katta guruhga: **1.Maishiy hayotga xos bo‘lgan realiyalar:** etnonimlar, oziq-ovqat nomlari, kiyim–kechak nomlari, uy-joy, jihozlar, inshoat nomlari, mehnat va mashg‘ulot turlari va taqvim. **2.Musiqa va madaniyat bilan bog‘liq so‘zlar:** urf-odat, rasm-rusum, an‘ana va marosimlar, bayramlar, o‘yinlar, musiqa va san‘at. **3.Pul va o‘lchov birliklari:** pul birliklari, o‘lchov birliklari kabi guruhlarga ajratdik.

Ijtimoiy-siyosiy realiyalar esa **ma‘muriy-hududiy birliklar, hukumat organlari va vakillari, siyosiy arboblari, unvon, daraja, o‘quv yurtlari va madaniyat o‘choqlari, asarlar nomlari, harbiy kiyimlar va qurollar, harbiy**

³⁹ «Бобурнома» учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон, 2008. – Б. 215.

⁴⁰ Ўша луғат. – Б. 207.

⁴¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki> [22.08.23]

⁴² Ўша луғат. – Б. 170

xizmat qiluvchilar va diniy realiyalar guruhlariga tasniflandi. Bu guruhlariga oid “Boburnoma”dan olingan realiyalar jadval asosida dissertatsiyada to‘liq ko‘rsatib berilgan. Tahlillar natijasidan shuni aytishimiz mumkinki, “Boburnoma”da milliy udumlar va realiyalar o‘ziga xos tarzda aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning ingliz tiliga tarjima qilish tamoyillari**” deb nomlangan ikkinchi bobida milliy udumlar va realiyalarning “Boburnoma” matnida berilishi va ularning ingliz tarjimonlari Leyden-Erskin (1826), A.Beverij (1922) va V.Tekston (1996) tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari aslyat bilan qiyoslanib, tahlil qilindi.


Milliy udumlar biror bir xalq yoki millatga xos bo‘lgan urf-odatlarini ifoda etuvchi hodisa bo‘lib, ularni tarjimalarda qay yo‘sinda amalga oshishini tahlil qilish tarjimashunoslikda muhim jihat hisoblanadi. “Boburnoma”da bu udumlar bir necha marta tilga olinib, atroflicha yoritilgan: *Barcha begimlar, mening ammam Poyanda Sultonbegim, Xadichabegim, Ofoqbegim, yana Sulton Abusa’id mirzoning qizlari amma begimlar, barcha Sulton Husayn mirzoning madrasasida yig‘ildilar. Barcha begimlar mirzoning maqbarasida edilarkim, borib ko‘rdum. Avval Poyanda Sultonbegim bila yukunub ko‘rushtum, andin so‘ng Ofoqbegim bila yukunmay ko‘rushtum, andin keyin Xadichabegim bila yukunub ko‘rushtum* (Boburnoma, 2002; 144). Turkiy tildagi **yuk, yukunch** “ta’zim qilmoq, topinmoq, sajda qilmoq” so‘zining asosi **yuka** shaklida sug‘d tilida bitilgan eng qadimgi Bug‘ut yodnomasida uchraydi⁴³. *Yukun* so‘zi asarda o‘ttizga yaqin o‘rinda qo‘llangan. “Yukun” fe’li ruhiy holat, harakat, insoniy ehtirom ifodasi hamdir⁴⁴. Bu so‘z shaxsning mansabi, jamiyatdagi mavqei, kim-kinga bo‘ysunishi kabi jihatlarni bildirgan. Temuriylar saroyida bu qonunga aylangan tartib bo‘lgan⁴⁵. **“Yukunmoq”–egilish, ta’zim qilish** ma’nolarida keladi. “Yukunmoq” faqat jismoniy egilish emas, balki *butun vujudi, borlig‘i bila egilish* ma’nosida ruhiy holat, harakat, insoniy ehtiromni ifodalaydi. Sharqona hurmat belgisi bo‘lgan yukunib salomlashish odati Leyden-Erskin tarjimasida: *I first saluted Payandeh Sultan Begum and embraced her; I next saluted and embraced Apak Begum; I then went and saluted Khadijeh Begum and embraced her.* (Leyden-Erskin II.1826;10) (Avval Payandeh Sulton Begimga salom berib, quchoqlashib ko‘rishdim; Keyin Apak begim bilan salomlashib, quchoqlab ko‘rishdim...) deya *yukunib – ta’zim qilib salomlashish* tarjimada quchoqlashib salomlashishga aylanib qolgan. Holbuki, turkiy xalqlar odobiga ko‘ra ayollar va erkaklar quchoqlashib ko‘rishishmaydi, balki erkak yengil ta’zim qilish orqali yelkasini tutgan holda salomlashadi. Ingliz tili lug‘atlarida **“salute”** 1.*to give a sign of respect to (a military officer, flag, etc.) by moving your right hand to your forehead: to give a salute to (someone or something)* 2.*to show respect (someone or something): to publicly praise*⁴⁶ deb ta’riflanadi va ta’zim qilish ma’nolarini bermaydi. (1-rasmga qarang).

⁴³ Исхоков М., Содиқов, Омонов Қ. Мангу битиглар. –Тошкент: ТДШИ, 2009. – Б.12.

⁴⁴ Холманова З. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.31.

⁴⁵ Кудратуллаев Х. Юқуниш сиёсати// Тафаккур. – Тошкент, 2004. № 3. – Б.83.

⁴⁶ <https://www.britannica.com/dictionary/salute> [24.10.2022].



1-rasm. Saluting

Beverij tarjimasida: *Having bent the knee with (yukunub bila) Payandasultan Begim first of all, I had an interview with her; next, not bending the knee, I had an interview with Apaq Begim; next, having bent the knee with Khadija Begim, I had an interview with her* (A.Beverij, 1922; 301) (Avvalo, Payandasulton Begimga tiz cho‘kib, u bilan suhbatlashdim; keyin, tiz cho‘kmay Apaq begim bilan suhbatlashdim...) deya tarjimada qayta tiklangan bo‘lib, *yukunish–bending the knee* tarzida ifodalanishi pragmatik nomuvofiqlikda amalga oshirilgan. S.Vlaxov va S.Florin ta’kidlashicha, mas’uliyatli ishga “milliy va tarixiy rangga nisbatan bunday xatolarning sababi tarjimon shaxsiyati bilan–uning yetarli konsentratsiyasi, haqiqiy dalillarni bilmasligi bilan bog‘liqligi uqtiriladi⁴⁷. “Boburnoma” tarjimasida davr ruhini aks ettirishda tarixiy, milliy-madaniyatga xos so‘zlar muhim o‘rin tutadi.

Tekstonda esa *First I knelt to Payanda Sultan Begim and had an interview. Then, without kneeling to Apaq Begim, I had a meeting with her.* (V.Tekston, 1996; 234) (Avval Payanda Sulton Begimga tiz cho‘kib, ko‘rishdim. Keyin Apaq begimga tiz cho‘kmay ko‘rishdim) deya tarjima qilingan. *Kneel – to go down into, or stay in, a position where one or both knees are on the ground*⁴⁸ deya ta’riflangan bo‘lib, yukunish holatiga mos ekvivalent bo‘la olmaydi. (2-rasmga qarang).




2-rasm. Kneeling

Yuqoridagi parchada *yukunib – ta’zim qilib ko‘rishmoq* holati tarjimada noto‘g‘ri berilishi oqibatida milliy chizgilar bilan yo‘g‘rilgan urf-odat va milliy udumlar tarjima tilida umuman boshqacha vaziyatda ifodalangan. Zero, M.Umarxo‘jayevning ta’kidiga ko‘ra: “Tarjimonning bilishi shart bo‘lgan holatlar mavjud. Birinchidan, tarjimon asl nusxa tilini yaxshi bilishi zarur! Ikkinchidan, tarjima qilinayotgan tilni ham yaxshi bilishi shart! Uchinchidan, o‘g‘irilayotgan

⁴⁷ Влахов С.И., Флорин С. П. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – С.123.

⁴⁸<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/kneel> [24.10.2022]

matn mazmuni, mohiyati, uning davr va makon muhiti, muallif xususiyatlarini besh qoʻlday bilishi, maxsus adabiyotlar bilan tanish boʻlishi, bulardan tashqari tillar oʻrtasidagi universalialar, struktural farqlarni ham bilishi zarur⁴⁹”. Shuning uchun asliyat tilini toʻgʻri tushunib tarjimada toʻgʻri yetkazib berish uchun tarjimon nafaqat asliyat tilini, balki shu xalq madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, yashash tarzi haqida ham yetarlicha maʼlumotga ega boʻlishi asar qiymatini saqlab qolishga beqiyos hissa boʻlib qoʻshiladi. Yuqoridagi parcha: *First, I bowed to Payanda Sultanbegim and then I greeted, after then I greeted with Apaq Begim without bowing, then I bowed to Khadijabegim* tarzida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq boʻlardi (3-rasmga qarang). Chunki **“bow”** (to bend your head or body forward, especially as a way of showing someone respect or expressing thanks to people who have watched you perform⁵⁰) soʻzi “taʼzim qilmoq” maʼnosida “yukunmoq” feʼliga mos keladi. Bu uch tarjimaning qay darajada toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini rasmlar orqali ham bilishimiz mumkin.



3-rasm. Bowing

Bobning ikkinchi faslida realiyalarning tarjimalarda aks etish masalalari yoritilgan. Realialar asar tilining ajralmas qismi boʻlib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. “Boburnoma” matnidagi: *Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur.....Shahrida va baʼzi kentlarida sortlardur. Baʼzi kentlarida va viloyotida pashoyi va parojiy va tojik va baraki va afgʻondur. Gʻarbiy togʻlarida hazora va nakdariydur* parchasidagi *sort, pashoyi, parojiy, tojik, baraki, afgʻonlar, hazora va nakdariy* etnonimlarining tarixiga koʻz tashlasak. **Pashoyi/peshoyi, parojiy, barak**– Afgʻonistonning Badahshon viloyatida yashovchi aholi va qabila nomlari, **tojiklar**– Eron xalqlarining avlodlari boʻlib, ularning Oʻrta Osiyo va Afgʻonistonning shimoliy qismida doimiy borligi miloddan avvalgi I ming yillikning oʻrtalaridan tasdiqlangan millat nomi, **hazora va nakdariy** – Kobulning gʻarbidagi togʻli Kamud va Gʻur tumanlarida yashovchi qavmlar⁵¹ sifatida tilga olingan. “Boburnoma”da **“sort”** soʻzi bir nechta maʼnoda keladi. 1. Shaharlarda turli hunar bilan shugʻullangan aholi: *Eli sorttur va mushtzan va pursharu shoʻr eldur* (Boburnoma, 2002; 35) 2. Tojik tilida soʻzlashuvchi aholi: *...har kim sortcha aytsa bir ayogʻ ichsun, har kishi turkicha aytsa bir ayogʻ ichsun...* (Boburnoma,

⁴⁹ Умархўжаев М. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон: Жаҳон-интер-принт, 2010. – Б.43.

⁵⁰ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english> [24.08.2022]

⁵¹ Mannonov A.N., Abdullayev N.A., Rashidov R.R. Afgʻoniston tarixi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – B.100.

2002; 249) ma'nolarida kelgan bo'lsa, yana boshqa sahifasida *o'troqlashgan, urug'-qabila munosabatlaridan yiroqlashgan aholi* ma'nosida qo'llangan va tarjimalarda turlicha aks etgan. Leyden–Erskin tarjimasida: **“atrok”** realiyasi turkiy tilda so'zlashuvchi qavm nomini bildirgani uchun tarjimon bu so'zga nisbatan tarjimada **Turks** so'zini qo'llagan, lekin *Shahrida va ba'zi kentlarida sortlardur* parchasidagi *sort* etnonimi *Tajics* deya ifodalangan. “Boburnoma”ning ayrim joylarida *sort* etnonimi “tojik tilida so'zlashuvchi aholi” ma'nosida kelgan bo'lsa-da, ammo ushbu parchada aytib o'tganimizdek “o'troqlashgan, urug'-qabila munosabatlaridan yiroqlashgan aholi”ni ifodalab kelgan. Chunki muallif keyingi gapda tojiklarga alohida to'xtalgan. Shuningdek, **“viloyat”** so'ziga nisbatan **country** qo'llanilishi tarjimada pragmatik nomuvofiqlikka ya'ni viloyatni davlat darajasiga tenglashtirilishiga olib kelgan. Parchadagi etnonimlar *Pashais, Parachis, Tajics, Berekis, Afghans, Hazaras and Nukderis* tarzida transliteratsiya qilinib, asliyatdagi ma'no aynan berilgan deyish mumkin.

Beverij tarjimasida: *pashoyi-pashal, baraki-birki, nakdariy-nikdiri* tarzida noto'g'ri transkripsiya qilingan. Tarjimada badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodalanmay qolgan. Lekin aytib o'tish joizki, Beverij tarjimasida Leyden-Erskindan farqli ravishda **“sort”** etnonimi **Sarts** shaklida to'g'ri ifodalab berilgan. Leyden–Erskin va Beverij honimda hududiy-ma'muriy bo'linishni ifodalovchi realiya **viloyat – country** ya'ni mamlakat bilan berilgan bo'lsa, Tekstonda **province** holda qoldirilgan va etnografik realiyalar tarjima tilida tushunarli va to'g'ri ifodalangan.

Uchinchi fasl “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalarning ingliz tiliga tarjima qilish mezonlari” deb atalib, unda milliy udumlar va realiyalarning tarjima qilish mezon va tamoyillari ko'rsatib berilgan. Tarjimashunoslikda realiyalar tarjimasi uchun maxsus andozalar yaratilmagan. Tarjimon, umumnazariy qoidalarga e'tibor bergan holda, o'zining til bilish va imkoniyat darajasi, bilimlari, tajribasi, sezgisi, va eng birinchi navbatda, “kontekstual vaziyat”iga tayanib, har bir alohida holat uchun eng maqbul yo'lni tanlaydi. Badiiy tarjimada realiyalarni tarjima qilish transkripsiya (o'zga tildagi so'zning tovushlarini boshqa til vositalari bilan ifodalash), transliteratsiya (o'zga tildagi so'zning harflarini tarjima tilidagi harflar vositasida ifodalash) orqali amalga oshiriladi. Transkripsiya o'zini oqlamaganda yoki so'zga mos bo'lmaganda maxsus tarjima usullari qo'llaniladi.

1. **Neologizm:** kalka, yarim-kalka, o'zlashtirish, semantik neologizm orqali.
2. **Yaqinlashtiruvchi tarjima:** generalizatsiya (umumiy muvofiqlik), funksional analog va izohli tarjima usullari orqali.
3. **Kontekstual tarjima.**

Tahlillardan va nazariy fikrlardan kelib chiqib, milliy udumlar tarjimalarining quyidagi tarjima mezonlarini belgilashni ma'qul topdik: 1. Milliy udumlarni ifodalovchi so'zlarning etimologiyasiga va leksik ma'nolariga e'tibor berish. 2. Retsepiyentda umumiy taassurot hosil qilishi, milliy udumlarni tarjima tilida so'zlashuvchilarga imkon boricha tushunarli tarzda ifoda etish. 3. Milliy udumlar asosan muayyan millat tarixiy-madaniy belgilarini ifodalab shu millatga xos milliylikni ifodalab keladi, ularning tarjimasi transkripsiya, funksional ekvivalent, tasviriy ifoda va boshqa usullarda amalga oshadi. 4. Ayrim hollarda milliy udum, urf-odat va turli marosimlar o'z nomlari bilan berilmaydi va muallif tomonidan

ma'lum ko'rinishlarda tasvirlanadi. Realiyalar tarjimalarining quyidagi tarjima mezonlarini belgiladik: 1.Realiyalar milliy qadriyatlarni aks ettirish xususiyatiga ega. 2.Realiyalarda o'ziga xos leksik ma'no mavjud; 3. Realiyalar milliy, mahalliy va tarixiy kolorit ifodasi uchun xizmat qiladi. 4. Realiyalar gapda ma'lum bo'lak vazifasida kelib, boshqa gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kirisha oladi.

Dissertatsiyada mezonlar bilan birgalikda tamoyillar ham berilgan. Milliy udumlar va realiyalar "Boburnoma" asari badiiyatini ta'minlashi bilan birga, undagi milliylikni ifoda etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Boburnoma**" matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari" deb ataladi, bu bobda "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi va "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalar inglizcha tarjimalarining lingvokulturologik jihatlari kabi masalalar o'z aksini topgan.

Lingvopragmatikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri G.Klaus edi. U pragmatikani "belgilar (Z) va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar (M) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflagan bo'lsa⁵², yana bir olim A.Kasher pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini "qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarini yoritish va tushuntirish"⁵³ga undasa, olmon olimlari pragmatika sohasini keng ma'noda talqin qilish, uni tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida e'tirof etishni ma'qul ko'rishadi.

"Boburnoma"da o'sha davr musiqashunosligiga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan va bu ma'lumotlar musiqa san'atiga oid milliy xos so'zlar orqali ifodalangan. Ushbu *Binoiy musiqiyda tavr ishlar bog'lantur, ul jumladin bir naqshi bor, "Nuxrang"ga mavsum. Bu to'qquz rangning tuganishi va naqshning yallosi "Rost" tadur* (Boburnoma, 2002; 138) parchasidagi **naqsh** realiyasi musiqada bezak ma'nosida ishlatiladi va shashmaqomning nasr deyilgan sho'balariga moslanib bastalanadi. Naqsh – ashula oralig'ida ijro qilinadigan cholg'u musiqa⁵⁴ bo'lib, mazkur realiya Leyden-Erskin va Tekstonda **naqsh** shaklida transkripsiya qilingan bo'lsa, Beverij variantida **air** deb ham tarjima, ham **nakhsh** tarzida transliteratsiya holati berilgan. *An air is a song-like vocal or instrumental composition, it is a variant of the musical song form*⁵⁵ (qo'shiqqa o'xshash vokal yoki cholg'u kompozitsiyasi bo'lib, musiqiy qo'shiq shaklining bir variantidir) deya ta'riflanganligi uchun tarjimada to'g'ri ekvivalent tanlangan deya olamiz. Parchadagi **No'h rang** realiyasi Binoiy tomonidan yaratilgan mashhur musiqiy asar⁵⁶ nomi bo'lib, *rost* maqomida bastalangan. Bu realiya uchchala tarjimada ham **Nuh-rang** va **Rast** tarzida transkripsiya qilinib, sarlavha osti izohlari bilan ifodalangan.

⁵² Гносеологический и прагматический анализ языка. – М., Прогресс, 1967. – 216 с.

⁵³ Kasher A. What is a Theory of Use. In: Meaning and Use. –Dordrecht, 1979. – P.37 - 56.

⁵⁴ Акбаров И.А. Музыка луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.192.

⁵⁵ [https://en.wikipedia.org/wiki/Air_\(music\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Air_(music)) [22.08.2023]

⁵⁶ Qorayev Sh. <https://www.qashqadaryozg.uz/read/binoiyning-qatl-etilishi-sababi-nima-edi#>[22.08.2023]

Shunday xos soʻzlar borki, ularni tarjimada pragmatik xususiyatlarini saqlagan holda adekvat talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga toʻla-toʻkis yetkazib berishdek murakkab muammoning eng masʼuliyatli va oʻta mushkul masalalaridan hisoblanadi. Sharqiy madaniyat va milliylikni toʻgʻri anglagan Tekston **gʻijjak** realiyasini tarixiy milliy koloritini saqlagan holda **ghichak** shakliga transliteratsiya qilgan boʻlsa, Leyden-Erskin va Beverij tarjimalarida *gʻijjak gitaraga, gijjakchi esa gitarachiga* aylanib qolgan. (4-rasmga qarang).



gʻijjak



guitar

4-rasm

Ogʻirlik, uzunlik, maydon, hajm va suyuqlik oʻlchovlarini bildiruvchi xos soʻzlar tarjimada alohida eʼtiborni talab qiluvchi guruhlardan biri hisoblanadi. Oʻlchov birliklaridan masofani ifodalovchi, butunning boʻlagini ifodalovchi, vaqt maʼnosini ifodalovchi, ogʻirlik oʻlchovlarini bildiruvchi va pul oʻlchov birligini ifodalovchi “Boburnoma”dan olingan realiyalar dissertatsiyada toʻliq koʻrsatilib, tahlil qilingan.

Lingvokulturologiyaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa oʻzida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V. fon Gumboldt oʻzining “Tilning tuzilishi va insoniyat maʼnaviy rivojiga taʼsiri” kitobi bilan tamal toshini qoʻygan⁵⁷. Lingvokulturologiya til birliklarining milliy-madaniy maʼnosi (semantika)ni, til va madaniyat munosabatlarini, milliy madaniyatning tilda ifoda etilishi muammolarini ilmiy va amaliy oʻrganadi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Kiyim-kechak tushunchasini ifodalovchi realiyalar, xalqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular milliy boʻyoqdorlikni yorqin namoyon qiluvchi leksika tarkibiga kiradi va ularni alohida izoh bermay tarjima qilib boʻlmaydi. Leyden-Erskin tarjimasida: *xitoyi atlas va sonchma tikkan toʻnlar* realiyasi – *frocks of Khita satin, embroidered with flowers* deya oʻgirilgan boʻlib, kashtada gullar bilan bezatilganligi nazarda tutilgan va asliyat pragmatik xususiyatlarini toʻla aks ettiradi, retseptorga maʼlumotni aniq yetkazish uchun xizmat qiladi. Lekin **boʻrk** – qalpoq, telpak⁵⁸ boʻlib, tarjimada **cap** – *shapka* maʼnosida umumiy tarzda ifodalangan, lekin pragmatik jihatdan aynan muvofiq keladi, deb ayta olmaymiz. Tarjimada keltirilgan soʻz *moʻgʻuliy boʻrk* realiyasining toʻliq maʼnosini ochib bera olmaydi.

Beverij tarjimasida ushbu realiyalar: *Mughul caps (burk), long coats of Chinese satin, broidered with stitchery* tarzida tarjima qilinadi. A.Beverij

⁵⁷ Нурмонов А. Оврўпода умумий ва киёсий тилшуносликнинг майдонга келиши// Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 2-жилд. – Б. 23 - 40.

⁵⁸ Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати. – Тошкент, 1994. – Б.46.

o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun tarjima tilidagi o'xshash ekvivalentini berishga urinadi shuningdek, qavs ichida transliteratsiya shaklini ham berib o'tadi. Ikkala tarjimon ham tarjima tilida *Xitoyi atlas* realiyasiga nisbatan *Chinese satin* leksik birligini ekvivalent sifatida tanlaydi.

Tekston tarjimasida *bo'rk* realiyasi Leyden-Erskin va Beverijdan farqli *xat* shaklida ifodalangan bo'lib, asliyatning badiiy-estetik qimmati, ularning milliy o'ziga xosligi va tarixiy davri saqlanib qolinmagan. Bu ikki bosh kiyimi anchagina farqli jihatlariga egaligi hammamizga ma'lum. Shuningdek *atlas* realiyasi yuqoridagi ikki tarjimondan farqli *brocade* leksik birligi bilan ifodalanib, Cambridge English Dictionary lug'atida *heavy, decorative cloth with a raised design often of gold or silver threads* deya ta'riflangan bo'lib, *atlas* matosidan ko'rinishi va ishlab chiqarilishi jihatidan farq qiladi. Bir xalq urf-odati, madaniyati va milliyliigi ikkinchi bir xalq urf-odati va milliyligida takrorlanmasligi yohud aynan, o'zidek aks etmasligi mumkin. V.Tekston qanchalik urinmasin bu lingvokulturologik xossani pragmatik muvofiqlikda aynan berishga erisha olmaydi.

Ko'rinadiki, realiyalarning tarjimasida har uchala tarjima variantida bir xil emas. Bu tarjima amaliyotidagi o'ziga xoslikni ko'rsatishi bilan birgalikda, tarjima mualliflarining individual uslublari, ayni paytda, tarjimonlik darajalari, "Boburnoma" va u mansub bo'lgan millat madaniyatini naqadar yaqindan bilishlarini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Realialar va milliy udumlar "Boburnoma" asari badiiyatini va undagi milliylikni ifoda etuvchi muhim omil hisoblanadi. "Boburnoma"da sof milliy odatlar, voqea-hodisalar, marosimlar, kiyim-kechaklar, hayvonot va nabotot olami tasvirida va saroy urf-odatlarini berishda realialar badiiy va milliy bo'yoqdorlik, qiyosiy usulning yuksak darajasida ifoda etilganligi tahlillar jarayonida aniqlandi.

2. "Boburnoma" matnida realiya va milliy udumlarni ta'riflashda aniqlik tamoyili asosida tasvirlangani, badiiy bo'yoqdorlikka halal berilmaganligi, aksincha, reallik va badiiylik uyg'unlashgani bois "Boburnoma"dagi realialar ta'sirchanlik, milliy o'ziga xoslikka ega ekanligi yoritib berildi.

3. "Boburnoma" matnida chavgon, ko'pkari, kurash, bahodirlik ulushi kabi milliy o'yinlarimiz, "quloqtishlar", "beshikkerti", "poyi cho'bin", "yilqiron oshi" kabi rasm-rusum va udumlar, motam marosimlari yorqin ifodasini topgan.

4. "Boburnoma" matnining ingliz tilidagi tarjimalari tahlili asl nusxaning milliy xususiyatlarini saqlab qolish, milliylikni qayta aks ettirish tarjima amaliyotining muhim masalalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Asl nusxadagi obrazning to'liq aks ettirilishi, xalqning milliy udumlari va madaniyati qahramon portreti, nutqi, u yashayotgan muhit (interyer), libosi, xatti-harakatlari tarjimada to'g'ri berilishiga bog'liqligi ko'rsatib berildi.

5. "Boburnoma" matnida uchta mamlakat xalqining hayoti, milliy xususiyatlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari o'z ifodasini topgan bo'lib, ularni tasvirlovchi milliy xos so'zlarni tarjimada qayta tiklash murakkab va mas'uliyatlidir. Bobur tabiat manzaralari, portret tasvirlari, uy-joy jihozlari, kiyim-

kechaklar, hayvonot va nabotot olamini aks ettirar ekan, voqealar kechayotgan davrga xos detallarni asarga kiritadi. Tarjimon yozuvchi bergan manzaralarni asliyatga yaqin vaziyatda tarjima qilishga intilgan bo'lsa-da, ayrim joylar tarjimasida tarixiylik prinsipiga rioya etmaydi, davr koloritini diqqatdan chetda qoldiradi. Zotan, tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda davr ruhini qayta tiklash juda mushkul ish bo'lib, bunda tarixiy davrni sifatlovchi interyer jihozlari tasvirlari muayyan darajada tarix kartinasini yoritishga xizmat qiladi.

6. "Boburnoma" matnida tilga olingan xalqlarning milliy udumlari, qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari, rasm-rusumlari, turmush tarzini ifodalovchi milliy-madaniy leksik birliklar yuzasidan o'tkazilgan lingvistik tahlil natijasida madaniyatning bir bo'lagi hisoblangan milliy udumlar tarjimasida tarjimonlarni muammolarga duch kelishi quyidagi omillar bilan belgilandi: a) tarjimon yetarli darajada fon bilimiga ega emasligi, b) uning ikki xil madaniyatning bir-biridan farqli madaniy belgiga duch kelishi; c) ikki tilning o'ziga xos jihatlarida ekanligi dalillandi.

7. "Boburnoma" matnidagi milliy udumlar va realiyalarni tarjima qilishda tarjimonlar quyidagi jihatlarni e'tibor markazida tutadi: a) transkripsiya (transliteratsiya) ya'ni milliy udumlar va realiyalarni tarjima tilining grafik belgilari yordamida asl fonetik shakliga maksimal yaqinlashtirib asliyat tilidan tarjima tiliga olib o'tilishi; b) yaqinlashtiruvchi tarjima, ya'ni realiyaning ma'nosini kengroq mazmunga ega birlik bilan berish, ya'ni xususiyini umumiy bilan almashtirish; c) funksional analog yoki funksional ekvivalent ya'ni tarjima tili o'quvchisida asliyat tilidagi birlikka o'xshash taassurot uyg'ota oluvchi muqobil variantdan foydalanish; d) tasvirlash, tushuntirish, izohlash usuli ya'ni, milliy udumlar va realiyalarni transkripsiya orqali berib bo'lmaydigan tushunchani tushuntirib ma'nosining mazmunini ochib berish; g) milliy udumlar va realiyalar tarjimalarini sharhlar orqali berish; h) kalka yo'li bilan tarjimalar amalga oshirilganligi aniqlandi.

8. Milliy udumlar va realiyalar pragmatikasi va adekvatligiga ko'ra Leyden-Erskin, A.Beverij, V.Tekston tarjimalarini qiyosiy o'rganish shunday xulosaga olib keldiki, ularni tarjimada berishda muqobil variantlarni izlash ko'pincha pragmatik nomuvofiqlikka olib keladi. Bu masalada tarjimon transliteratsiya usulidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Realialarni tarjima matnida ifoda etishda, ularning matn kontekstida bajaradigan badiiy-semantik vazifasidan kelib chiqish tarjima amaliyotida yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin deb xulosa qildik.

9. Milliy udumlar va realiyalar tarjimalarining ayrimlarida tarjima tilidagi o'xshash variantlar bilan ifodalanishi oqibatida adekvat o'girilmagan holatlar uchraydi. Garchi, tarjimonlar bu o'rinda ingliz tili o'quvchisi ehtiyojini hisobga olgan bo'lsalar-da, bu tarjima oqibatida kelib chiqadigan matn g'alizligini ko'zdan qochirganlar. Natijada milliy udumlar va realiyalar tarjimalarda to'la ifodalanmay qolgan. Bu jihatlar tarjima amaliyotiga kirishishdan oldin shu xalq tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlaridagi nozikliklarni to'la o'rganishni talab etishi tahlillar sharhidan asoslandi.

10. “Boburnoma” matnidagi milliy udumlar va realiyalar tarjimalarini tarjima nazariyasi va amaliyotining umummetodologiyasi asosida to‘la tahlildan o‘tkazish jarayonida milliy udumlar va realiyalar tarjimalarining mezonlarini a) milliy so‘zlarning leksik ma’nolariga e’tibor berish; b) o‘quvchida umumiy taassurot hosil qilishi, milliy udumlarni tarjima tilida so‘zlashuvchilarga imkon boricha tushunarli tarzda ifoda etish; c) milliylikni ifodalovchi so‘zlar o‘zlariga xos qurilishga, tuzilmaga ega bo‘lishi va tarjimada bularni hisobga olish zarurati; d) milliy udumlar va realiyalar asosan muayyan millat tarixiy-madaniy belgilarini ifodalab shu millatga xos milliylikni ifodalab keladi, ularning tarjimasi asosan transkripsiya, yaqinlashtiruvchi tarjima, funksional ekvivalent va izohli tarjima va boshqa usullarda amalga oshadi; e) Ayrim hollarda milliy udum, urf-odat va turli marosimlar o‘z nomlari bilan berilmaydi va muallif tomonidan ma’lum ko‘rinishlarda tasvirlanadi; f) realiyalar gapda ma’lum bo‘lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo‘laklari bilan munosabatga kirisha oladi, gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va ot-kesim bo‘lib keladi, tarjimalarda shakl va mazmunini saqlagan holda amalga oshirilishi lozimligini belgilashni ma’qul topdik.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING ACADEMIC
DEGREES PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES**

NAMANGAN INSTITUTE OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY

IBRAGIMOVA RAYHONA ABDIMAJITOVNA

**A LINGUOPRAGMATIC STUDY OF ENGLISH TRANSLATIONS
OF NATIONAL TRADITIONS AND REALIAS IN THE TEXT
OF “BABURNAMA”**

**10.00.06 – Comparative Study of Literature, Contrastive
Linguistics and Translation Studies**

ABSTRACT
of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL SCIENCES

Andijan – 2024

The dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences is registered in the Higher attestation commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.1.PhD/Fil2250.

The dissertation was completed at Namangan Institute of Engineering and Technology.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Academic Council (www.adchti.uz) and on the Information and Education Portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific advisor:

Khoshimova Dildora Madaminovna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Raupova Laylo Rakhimovna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Nematilla Otajonov
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization:

Fergana State University

The defense of the dissertation will take place on "_____" "_____" 2024 at "_____" at a meeting of the Scientific Council PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 awarding scientific degrees at Andijan State Institute of Foreign Languages (Address: 170100, Andijan city, Babur Avenue, 5, Tel: 0(374)223-42-76; fax: 0(374)223-42-76; e-mail: asifl_@edu.uz)

The dissertation is available at the Information Resource Center of Andijan State Institute of Foreign Languages (registered number ____). (Address: 170100, Andijan City, Babur Avenue, 5, Tel: 0(374)223-4276)

The abstract of the dissertation was distributed on "_____" "_____" 2024 (Protocol at the registered № ____ on "_____" "_____" 2024).

D.A.Rustamov

Chairman of the Scientific Council on
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences (DSc),
Professor

A.Dj.Atboyev

Secretary of the Scientific Council on
awarding scientific degrees, Doctor of
Philosophy (PhD) on Philological
Sciences

M.I.Umarkhodjaev

Chairman of the Scientific Seminar at
the Scientific Council on awarding
scientific degrees, Doctor of Philological
Sciences, Professor

INTRODUCTION

Relevance and actuality of the dissertation theme. In world linguistics and translation studies, special attention is paid to the linguopragmatic and linguocultural features of the translation of classical works. Since the last years of the last century, the issue of studying the translations of national-cultural language units in classic works has intensified. Also, the research of the manuscripts and translations of the "Baburnama", considered an encyclopedic source, is the focus of attention of world orientalists and translators, determining the research's relevance. One of the essential tasks is to determine the expressive possibilities of linguistic units that describe social and cultural life, national customs, and traditions reflected in the text of "Baburnama".

In world translation studies, special attention is paid to the issues of translating language and culture in an integral relationship, equivalence in translation, the national character of linguistic means, and the re-creation of the work in a way that preserves the national color of the work. Most translation shortcomings correspond to the lack of language tools that reflect national character. One problem that arises in translating linguistic units representing each nation's national characteristics is revealing the translation's linguopragmatic features. The topic's relevance is determined by linguistic analysis of the realias related to national color, national traditions, and national-cultural units in expressing these features and by finding a solution to the problems of reflecting national-cultural values in translations.

Considerable work is being done in our country to research translations of national-cultural values and traditions of different peoples and to introduce the oriental national features of Uzbek culture to the world. The reforms carried out by our state, attention to literature and spirituality at the level of state policy, "the unique and scientific and spiritual heritage of our great ancestors, which should become a vital program in constant motion for us, as well as these spiritual treasures, which need to be delivered in simple and understandable forms by scientists and specialists", require raising the status and level of the science of linguistics and literature.⁵⁹ The need to study the scientific heritage of our ancestors like Zahiriddin Muhammad Babur, in particular, the national traditions in "Baburnama", the realias that show the national character of the people as a national category, to convey the translation of the artistic text to the reader as in the original, and to recreate it in pragmatic conformity shows the importance of the work.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", dated January 12, 2017, "Development of the system of printing and distribution of book products, increasing book reading and reading culture" and the Order on the establishment of a promotion commission, dated April 20, 2017, No. PQ-2909 "On measures to further develop the higher

⁵⁹ Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi". –Toshkent, 2022. - 464 b

education system”, dated May 24, 2017, No. PQ-2995 “Ancient writing Decision on measures to further improve the system of preservation, research, and promotion of resources”, Decision No. PQ-3074 of June 20, 2017, “On the establishment of the research center of cultural resources of Uzbekistan abroad under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan”, Decision No. 610 of August 11, 2017, “On measures to further improve the quality of foreign language teaching in educational institutions”, PQ-5117 of May 19, 2021, in the Republic of Uzbekistan “A measure to bring the popularization of foreign language learning to a new level in terms of quality -events”, Decision No. PQ-20 of January 25, 2023, “On the wide celebration of the 540th anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous statesman Zahiriddin Muhammad Babur”, and other regulatory and legal acts related to this activity. This dissertation research serves to a certain extent in implementing the tasks defined in the documents.

Correspondence of the research to the priorities of the Republic's development of science and technology. This study was carried out under the priority direction of the republican science and technology development: I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

Level of study of the research problem. English specialists J.Leyden, U.Erskin, L.U.King in the special scientific research of Zahiriddin Muhammad Babur's prolific work, especially "Baburnama", identification of the main sources of the work, artistic features and translations into foreign languages⁶⁰; AS Beveridge⁶¹, H. Beveridge, American H. Lamb⁶², W. Thackston⁶³; Italian Federico Pastore⁶⁴, orientalists such as M.Salye, G.F.Blagova, V.Stebleva made great contributions to the study of translations of the “Baburnama” and their pragmatic features⁶⁵. It is especially important that the Japanese scholar Eiji Mano prepared and published the critical text “Baburnama” with its translation⁶⁶. These issues are studied on a scientific and theoretical point of view in the work of outstanding scientists of our country: A.Fitrat, M.Shaykhzoda, H.Yaqubov, S.Azimjonova, A.Qayumov, P.Shamsiev, V.Zohidov, S.Jamolov, S.Mirzayev, S.Hasanov, B.Valikhojaev, H.Qudratullaev, M.Umarkhojaev, A. Abdugafurov, G.Salomov, N.Otajonov, N.Komilov, G.Sotimov, H.Boltaboev, M.Kholbekov, A.Abduazizov, L.Khojaeva, G.Khojaev, S.Shukrullaeva, F.Salimova, A.Ibrohimov, R.Karimov,

⁶⁰ King L, Leyden J. & Erskine W. *Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan.* – London, 1826. Annotated and revised ed. by L.King, 2 Vols., – Milford, 1921. - 480 pp.

⁶¹ Beveridge A.S. *The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur)*, Translated from the original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge, 2 Vols. – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970. – Lahore, 1975. - 472 pp.

⁶² Harold Lamb. *Babur the Tiger.* – New York, 1961. - 226 pp.

⁶³ *The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor*, Translated, edited, and, annotated by Wheeler. M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. - 460 pp.

⁶⁴ Federiko Pastore. *Zahir ad-Din Muhammad Babur; Baburnama.* –Italy, 2023. - 422 pp.

⁶⁵ Салье М. Из узбекских классиков. –Ташкент, 1946. - 178 с.; Благова Г.Ф. О характеристике грамматического строя (морфологии староузбекского литературного языка конца XV века по «Бабурнаме»): Дисс. ...канд. филол. наук. – М.,1954. – 247 с.; Стеблева И.В. «Бабурнаме» язык, прагматика текста, стил. – М., 1994. - 404 с.

⁶⁶ Eiji Mano. *Bābur-nāma (Vaḡāyi). Critical Edition Based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes.* – Kyoto: Shōkadō, 1995. - 630 pp.

M.Sobirov, Z.Kholmanova, D.Khoshimova, Z.Teshaboeva, M.Abdullaeva, Sh.Hayitov, I.Sulaymonov, M.Amonov, D. In the works of Muhammadiyeva, M.Sharakhmetova, M.Muminova, S.Shodmonova and Yo.Altmisheva⁶⁷.

In Uzbek literary studies, such issues as a translation of "Baburnama," the study of its artistic features, the author's unique descriptive skills, portraits of historical figures in the work, artistic depiction of his mental state, cognitive and lexicographic research of phraseological units, the linguopragmatic study of the translation of the work have been addressed by researchers in the works mentioned above were studied. In particular, "A Short Dictionary for the Works of Zahiriddin Muhammad Bobir" was compiled by H.Nazarova⁶⁸, the problems in the translation of "Baburnama" are covered in the dissertation of L.Khojaeva⁶⁹, as an example of the Russian translation of the work, and the German translation of the work is covered in the studies of G.Khojaev⁷⁰. Also, in the works of S.Shukrulloeva⁷¹, M.Kholbekov⁷² and N.Otajonov⁷³, it is mainly approached as an example of artistic prose, and scientific problems are illuminated from these aspects, while the issue of vocabulary and the French translation of the work is researched in the research

⁶⁷ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент: Ўздавнашр, 1928. - 43 б; Мақсуд Шайхзода. Асарлар: 6 жилдлик, 5-жилд. Захириддин Бобир. – Тошкент: Ғафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1973. - 327 б; Ҳ.Ёкубов. Бобир. – Тошкент, 1941; Адабий мақолалар; Тошкент: Ғафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, - 366 б; Бобир. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонов, А.Қаюмов. – Тошкент, 1958. - 126 б; Бобир. Бобирнома / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. – Тошкент, 1960. – 513 б; Зоҳидов В. Бобирнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси ҳақида. (Сўз боши) //Бобир. Бобирнома – Тошкент, 1960. – Б. 5 – 52; Жамолов С. О художественных особенностях «Бабур-наме». Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1961. - 154 б; Бобир. Асарлар / Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев. Уч жилдлик. – Тошкент: Фан, 1965. - 296 б; Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Тошкент: Фан, 1966. - 85 с.; Бобур. (Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов). – Тошкент: Фан, 1971. - 241 б.; Б.Валихўжаев. Захириддин Мухаммад Бобир. // Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент, 1978. - 380 б; Қудратуллоев Ҳ.С. «Бобурнома»нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг қиёсий таҳлили асосида): Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент: 1998. - 242 б; Ҳасанов С. Бобурнинг Рисолайи аруз асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. - 174 б; М.Умархўжаев. Халқ калбининг кўзгуси: Бобур Мирзо ватанида у билан боғлиқ обидаларни тиклаш, Бобур жамғармасини ташкил қилиш ҳақида // Коммунист. 1990, 14 март; Бобур. Девон / Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан; 1994; Ғайбуллоҳ ас-Салом, Н.Отажон. Жаҳонгашта Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1996. - 362 б; Хайриддин Султон. Бобурийнома. – Тошкент, 1996; Эрскин У. Ҳиндистонда Бобур давлати / Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси. – Тошкент, 1997. - 64 б; Шарма П. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси). – Тошкент, 1998. –168 б; Бобур. Мубаййин / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2001. - 182 б; Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004. - 139 б; А.Қаюмов. Асарлар. 5-жилд. Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. - 303 б; Холманова З. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009; - 325 б; Хошимова Д. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Монография. – Тошкент. Мумтоз сўз. 2018. - 132 б; Абдуллаева М. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004. –152 б.

⁶⁸ Назарова Ҳ. Захириддин Мухаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1972. - 190 б.

⁶⁹ Ходжаева Л. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Андижан, 1985. - 24 с.

